o‘z mehnati hisobiga hayot kechirish lozim. Shuning uchun Bahouddin Naqshbandning hayot yo‘li va u yaratgan ta’limot Muhammad payg‘ambar sunnatlariga o‘xshashdir.

Natijalar (Results). Bahouddin Naqshband umr bo‘yi dehqonchilik bilan kun kechirgan. Shuningdek, butun umrini bilan faqirlikda o‘tkazgan Bahouddin Naqshband. ushbu tariqatning asl aqidasi bo‘lmish “Dast-ba kor-u, dil ba yor”, ya’ni, doimo qo‘ling ishda, ko‘ngling Allohda bo‘lsin”, degan g‘oyani ilgari surgan. Bahouddin Naqshband o‘z mehnati, kuchi bilan kun ko‘rishni yoqtirgan, ishlab topgan mol-mulkini yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in’om etgan. Hukmdorlardan doimo o‘zini yiroq tutishga uringan va ulardan hech qachon ta’magirlik qilmagan.

Naqshbandiya ta’limoti Markaziy Osiyoda Amir Temurning mo‘g‘ullar iste’losiga qarshi kurashi, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma’naviy rivojlanishni ta’minlashga intilishida, temuriylar davri renessansining vujudga kelishida ulkan hissa qo‘shgan. XV asrning ko‘p olim-fozillari, davlat arboblari, san’atkorlari naqshbandiya tariqati ta’limotidan keng foydalanganlar va ushbu tariqatga o‘ta ijobiy munosabatda bo‘lganlar.

Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo‘l siltamay turib ham yaratganga mukammal itoat etish mumkinligi haqidagi g‘oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’minlagan. Bugungi kunda Bahouddin Naqshbandning Buxorodagi qabri ziyoratgoh hisoblanadi. Bahouddin Naqshband va uning ta’limoti hamda naqshbandiy shayxlar to‘g‘risida ko‘plab asarlar yaratilgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xulosa (Conclusion). Tariqatlar tasavvufning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, o‘ziga xos uslub va qoidalar bilan insonni kamolotga yetkazishga xizmat qilgan. Mumtoz tariqatlar XII asrda vujudga kelgan bo‘lsa, XIV asr ikkinchi yarmida vujudga kelgan xojagon-naqshbandiya tariqati butun tariqatlardagi (jumladan, yassaviya tariqatidagi) mushtarak unsurlarni o‘zida aks ettirgan mumtoz tariqatlarning biriga aylangan. Shu bilan birga, naqshbandiya tariqati ham boshqa tariqatlar kabi komil insonni tarbiyalashda o‘ziga xos uslub va qoidalardan foydalangan. Naqshbandiya tariqati mumtoz tariqatlarning oxirgisi va shuning uchun unda butun tasavvuf va tariqatlardagi eng yaxshi tomonlar o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Reference):

(1). Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. Т., “Янги аср авлоди”, 2003, 44-бет.

(2). Г.Н.Наврўзова. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Тошкент, «Фан», 2021, 192-бет.

(3). Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (Авроди Баҳоия). Г.Наврўзова таржимаси. Бухоро, «Бухоро», 2000, 40-бет.

(4). С.Рахмонов. Икки тариқатнинг буюк даҳолари (Мавлоно Жалолиддин Румий ва Хожа Баҳоуддин Нақшбанд мисолида). Монография, Самарқанд, СамДЧТИ, 2022. 148-бет.

(5). Г.Н.Наврўзова, Э.Х.Зоиров. Бухорои шарифнинг етти пири. Тошкент, “Muharrir”, 2018, 80-бет.

Maxmudov Feruz Tulkinovich (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi)

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLABAY ISHLASH TIZIMINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda mahallabay ishlash tiziminining xususiyatlari aks ettirilgan. Yurtimizda “Mahallabay” tizimni amaliyotda samarali ishlashini ta’minlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *mahallabay ishlash, mahalla, mahalla beshligi, mahalla yettiligi, ijtimoiy himoya.*

Махмудов Феруз Тулкинович (соискатель института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан)

ХАРАКТЕРИСТИКИ СИСТЕМЫ РАБОЫ С МАХАЛЛИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В данной статье отражены особенности системы махаллинский работы в Новом Узбекистане. В нашей стране разрабатываются механизмы, обеспечивающие эффективное функционирование системы «Махалля» на практике. Сегодня для развития и поддержки микрорайонов введены республиканские, областные и районные (городские) советы.*

Ключевые слова: *махаллинская работа, махалля, «махаллинская пятерка», «махаллинская семерка», социальная защита.*

Makhmudov Feruz Tulkinovich (Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan)

CHARACTERISTICS OF THE NEIGHBORHOOD WORKING SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN

Annotation. *This article reflects the features of the neighborhood work system in New Uzbekistan. In our country, mechanisms are being developed to ensure the effective functioning of the "Mahallabay" system in practice. Today, republican, regional and district (city) councils are being introduced for the development and support of neighborhoods.*

Key words: *neighborhood work, neighborhood, neighborhood five, neighborhood seven, social protection.*

Kirish (Introduction). Yurtimizda olib borilayotgan "mahallabay" ishlash mexanizmining ham muhim asosini ana shu tamoyil ya'ni, barcha soha vkillarining hamjihat bo'lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashish bilan ifodalanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida bugungi kunda mahallalarda mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat "beshlik tizimi" keyinchalik soliq va ijtimoiy xizmat xodimining qo'shilishi natijasida "mahalla yettiligi" tashkil etilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi masalalarni tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy hal qilishdir. Shuningdek, bugungi kunda bandlik, tadbirkorlik va kasanachilik jamg'armalari mablag'lari har bir mahallaga taqsimlab berilmoqda.

Mahallalarda qulay va elektron ish yuritish yo'lga qo'yilib, amaldagi uchta platforma – "Onlayn mahalla", "Xotin-qizlar", "Yoshlar portali" o'zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtirilgan. "Mahalla yettiligi" ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytirilib, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi bilan birgalikda ijtimoiy rag'batlantirish yoki intizomiy jazo qo'llash bo'yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo'lib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, mahallalar – davlatimizning eng katta zaminidir [1]. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "mahallabay" va "fuqarobay" ish uslublari ayni damda aholi murojaatlari va jamiyatdagi ko'plab muammolarni bartaraf etishda o'z samarasini bermoqda.

Adabiyotlar tahlili va metod (Materials and methods). Mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholining ijtimoiy talablaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Buning uchun mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilmoqdaю "Mahallabay" ishlash – bu barcha soha mutasaddilarining bir musht bo'lib, mahallalardagi muammolar, aholi turmushidagi muhim masalalarni birgalikda hal etishning yangicha mexanizmidir [2]. Bugungi kunda yurtimiz hududlaridagi muammolarni "mahallabay" aniqlash va bartaraf etish, xususan, hududlarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlaridan iborat Ishchi guruhlar tuzilgan hamda mazkur amaliyot natijasida joylardagi odamlarni qiynayotgan ko'plab ijtimoiy muammolar hal etilmoqda.

Xususan, mahallalarning ichki yo'llari, ichimlik suvi va elektr ta'minoti, irrigatsiya tarmog'ini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Mahalla xodimlarining sektor rahbarlari va tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan olib borgan uzviy hamkorligi natijasida bugungi kunga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ko'maklar berilib, xotin-qizlarning bandligi ta'minlanib kasb-hunarga o'qitish ishlari jadal olib borilmoqda.

Yurtimizdagi mavjud barcha fuqarolar yig'inlari qoshida tashkil etilgan "Ayollar maslahat kengashlari"da malakali psixologlarni jalb etgan holda ijtimoiy himoyaga va psixologik ko'makka muhtoj ayollar uchun treninglar tashkil etilgan. "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratish, fuqarolarning hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug'ullanishlargiga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolarga tomorqachilikni rivojlantirish maqsadida subsidiya ajratilib, ularning o'quv kurslarida o'qitilishi ta'minlanmoqda. O'quv kurslarida kasb-hunarga o'qitilgan fuqarolarga o'z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash uchun subsidiyalar ajratilmoqda.

"Mahallabay" tizimni amaliyotda samarali ishlashini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Jamoat xavfsizligi xodimlari tomonidan joylarda ishchi guruhlari tashkil etilib, yo'l harakati xavfsizligi ta'minlanmoqda.

Muhokama (Discussion). Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilayotganligi alohida ta'kidlangan. Zamon shiddat bilan

o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz-mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi, deya ta’kidladi davlat rahbari.

Bugungi kunda “Mahallabay” ishlash tizimda har bir mahallaga tijorat banklarining mas’ul xodimlaridan iborat doimiy vakil biriktirilaib, ular mahalla raislari bilan birga xonadonlardagi ahvolni, ishsizlar soni, ularning qiziqishlari, hududning “o‘sish nuqtalari”, mavjud tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini kengaytirish masalalarini o‘rganmoqdalar. Har bir mahallani rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-farmoniga asosan, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman “hokim yordamchisi” lavozimi ta’sis etildi [3]. Ushbu lavozimlarga Respublika Ishchi guruhi bilan birgalikda tuman korxona va tashkilotlarida ishlayotgan rahbar xodimlar saralab olindi. Lavozimga tayinlangan hokim yordamchilarining faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida o‘qitish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar asosida tajribasini oshirish yuzasidan o‘quv seminarlar tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-qaroriga asosan, tijorat banki va hokim yordamchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrdagi PQ-62-qaroriga asosan, hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi va hududlarda markazlar tashkil etildi [4].

Natijalar (Results). Bugungi kunda hokim yordamchilarining hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish tizimli ishlarni olib bormoqdalar.

Xonadonlarni toifalarga ajratilib, daromadi kam, biroq daromad topishga harakat qilayotgan xonadonlar, doimiy daromadga ega, qo‘shimcha daromad topish istagidagi xonadonlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi bo‘lgan xonadonlar va iqtisodiy ahvoli yaxshi va o‘ziga to‘q xonadonlarga bo‘lib o‘rganilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-54-sonli qaroriga asosan namunali mahallalar va ulardagi namunaviy xonadonlar tashkil etilgan.

Xulosa (conclusion). Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilmoqda. Respublika kengashiga bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qilishi belgilab berilgan. “Mahallabay” tizimi asosida yoshlar va ayollarni ish bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirishga alohida e’tibor qaratilib, aniq chora-tadbirlar asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mahalla tizimini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. 26.09.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6695

(2). Mahallabay” ishlash tizimi samaralari. 18.06.2021. https://yuz.uz/news/mahallabay-ishlash-tizimi-sama ralari

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5758437

(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-qarori. https://lex.uz/uz/docs/5758155

(5). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.12.2021-yildagi “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-qarori. https://lex.uz/uz/docs/5777393